

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'ROQ GAPLARNING TURLARI

Burxanova Mashxuraxon Muhammad qizi

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Abdubanopova Sarvinov Zoirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

chet tillari fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola so'roq gaplarning tadqiqotlardagi o'rnini va ahamiyatini ingliz hamda o'zbek tillarida taqqoslab, ularning grammatik o'xshash shu bilan birga farqli tomonlarini tahlil qiladi.*

Kalit so'zlar: *so'roq gaplar, tasdiq so'roq gaplar, muqobil so'roq gaplar ,maxsus so'roq gaplar,darak gaplar.*

Abstract: *This article compares the role and importance of interrogative sentences in research in English and Uzbek,analyzing their grammatical similarities and differences.*

Keywords: *affirmative interrogative sentences, interrogative sentences,alternative interrogative sentences,special interrogative sentences, indicative sentences.*

Аннотация: *В данной статье сравнивается роль и значение вопросительных предложений английского и узбекского языков, анализируются их грамматические сходства и различия.*

Ключевые слова: *Вопросительные предложения, утвердительно-вопросительные предложения, альтернативные вопросительные предложения, специальные вопросительные предложения, повествовательные предложения.*

Ma'lumki, insoniy muloqotning asosi bo'lgan til, o'zida turli funksiyalarni mujassam etadi. Ma'lumot almashish, fikr bildirish, his-tuyg'ularini ifodalash jarayonlarida gaplarning turli shakllari muhim rol kasb etadi. Ana shulardan biri – so'roq gap bo'lib, u axborot olish, tasdiq yoki inkor so'rash,shuningdek, turli grammatik va pragmatik maqsadlarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. So'roq gaplarni tadqiq qilishning eng asosiy yo'nalishlardan biri ularning sintaktik (gap tuzilishi) va morfologik (so'z shakllari) xususiyatlarini o'rganishdir.Turli tillarda so'roq gaplar turli xil usullarda shakllanadi hamda yasaladi.

So'roq gaplarni yasashda tilning grammatik, sintaktik hamda morfologik xossalariga tayaniladi. Shunday ekan, dastlab ingliz va o'zbek tillarining ushbu jihatdagi o'ziga xos va o'xshash taraflarini ko'rib chiqamiz.

Intonatsiya (gapning aytilishida ohangning ko'tarilib borishi), punktuatsiya (so'roq belgisidan foydalanish), bazi sintaksik vositalar (maxsus so'roq gaplar, so'z tartibi) o'zbek va ingliz tilidagi so'roq gaplar uchun umumiy bo'lgan jihatlar hisoblanadi.

Ingliz tili analitik til hisoblanib, unda so'zlar o'rtasidagi grammatik munosabatlar ularning gapdagi so'z tartibi (word order) va so'z bo'laklari (prepositions) orqali ifodalanadi. Ingliz tilida kelishiklar mavjud emas. Ingliz tili morfologiyasida sifat va ravishlar o'z shaklini deyarli o'zgartirmaydi, fe'llar esa faqatgina bir necha shaklga ega bo'ladi. Biroq, ushbu

cheklovlar sintaksisning moslashuvchanligi, jumladan, gapning soddalashtirilgan tuzilmasi hamda maxsus fe’l konstruktsiyalari – phrasal verbs yordamida chetlab o’tiladi.

O’z o’rnida, o’zbek tili agllyutinativ til hisoblanib, unda so’z o’zagiga qo’shimchalar qo’shish yo’li bilan grammatik ma’no yaratiladi. Ingliz tilidan farqli o’laroq, o’zbek tilida so’zlar gapda kelishiklar bilan bog’lanadi.

Tilshunoslikda ingliz tilida so’roq gaplar asosan to’rt turga bolinadi: maxsus so’roq gaplar (special questions), umumiy so’roq gaplar (general questions), tasdiq so’roq gaplar (disjunctive questions) va muqobil so’roq gaplar (alternative questions).

Maxsus so’roq gaplar (special questions) gapning biror bolagi bo’lib, who, what, whose, how, when va boshqa so’roq sozlar bilan boshlanadi. Misol qilib ushbu so’roq gaplarni keltirishimiz mumkin:

Who brought you this book? When did he come?

Ingliz tilida so’roq olmoshi gapning boshida keladi, o’zbek tilida esa nisbatan erkinroq, ammo bazi hollarda gapning boshida yoki o’rtasida joylashadi.

Ingliz tilida umumiy so’roq savollar yordamchi (do va uning shakllari) hamda modal (can, should, would, may va boshqalar) fe’llar bilan boshlanadi.

Can you stay? Do we need this?

O’zbek tilida ushbu turdagi savollarni tuzishda so’roq qo’shimchalari (-mi? mu?) hamda so’z o’zagidagi so’roq affikslari ishlatiladi.

Qola olasizmi? Bu bizga kerakmi?

Muqobil so’roq gaplar ingliz tilida ham, o’zbek tilida ham ayiruvchi bog’lovchi “or” – “yoki” orqali tuziladi, bunday so’roq gaplarida ikki yoki undan ortiq variantlar o’rtasidagi tanlov nazarda tutiladi.

Did you get it or not? Tushundigmi yoki yo’qmi?

Tasdiq so’roq gaplarda qandaydir ma’lumot bayon etilib, gap so’ngida ushbu ma’lumotning tasdiqlanishi yoki inkor etilishi uchun qisqa savol qo’yiladi.

You are not good at running, aren’t you?

Ingliz tilida har safar qisqa savolda fe’l shakli zamonga qarab o’zgarsada, o’zbek tilida ushbu so’roq gap turini alohida universal birikma orqali ifoda etish mumkin.

“Sen yaxshi yugura olmaysan. Shunday emasmi?” yoki “Sen yaxshi yugura olmaysan-a?”

Ingliz tilida ham, o’zbek tilida ham so’roq gaplar maxsus so’roq so’zlar yordamida tuzilib, ular odatda gapning boshida keladi. Shu bilan birga, o’zbek tilida so’roq gaplarni tuzishda so’roq qo’shimchalari (-mi? mu?) hamda so’z o’zagidagi so’roq affikslari ishlatilishi mumkin.

Masalan, “charchamadingizmi?” “uyga ketyapsanmi?”

Ingliz tilida esa bu inversiv konstruktsiya yordamida, ya’ni so’zlar tartibini almashtirish, asosan yordamchi fe’lni otdan oldinga qo’ygan holda ifodalanadi.

Are you not tired? are you going home?

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o’zbek va ingliz tili tipologik jihatdan tubdan farq qilishi, shu sababli so’roq savollarini tuzishda ularni to’g’ridan-to’g’ri tarjima qilishga urinmasdan, grammatik, morfologik va sintaksik xususiyatlarni inobatga olish lozim bo’ladi.

Bunda, ingliz tilida so’roq savollarini tuzishda asosiy e’tibor maxsus so’roq so’zlarni to’g’ri tanlash, gapda so’zlarning aniq tartibiga amal qilish, yordamchi fe’llarning tegishli zamonda ishlatilishi modal fe’llarning ma’nosidan kelib chiqqan holda foydalanilishga e’tibor qaratish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Irisqulov . Tilshunoslikka kirish. Toshkent. 1992. 220 b.
2. M.A.Halliday. An Introduction to Functional Grammar 2004. 134 p.